

XORIIJIY TILLARNI O‘QITISHDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKALARI

Jurayeva Sevara Bahodir qizi,

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

Pedagogika mutaxassisligi 1-kurs magistranti,

Denov tumani 83-maktab Ingliz tili o‘qituvchisi

Email: ibrohimazamatov39@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Xayitova Feruza Abdullayevna,**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,

Pedagogika va texnologik ta’lim kafedrasida o‘qituvchisi,

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Email: feruzaxayitova99@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida o‘quvchi va talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Xorijiy tillarni o‘rganish jarayoni shunchaki grammatik qoidalarni yodlash emas, balki axborotni tahlil qilish, baholash va sintez qilish vositasi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Tanqidiy fikrlash, Bloom taksonomiyasi, kommunikativ kompetentsiya, muammoli ta’lim, Z avlodi, xorijiy tillar, HOTS – Higher-Order Thinking Skills.*

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются теоретические и практические основы развития навыков критического мышления у учащихся и студентов в процессе обучения иностранным языкам. Обосновано, что изучение иностранных языков — это не просто заучивание грамматических правил, а инструмент анализа, оценки и синтеза информации.

Ключевые слова: *Критическое мышление, таксономия Блума, коммуникативная компетенция, проблемное обучение, поколение Z, иностранные языки, HOTS – навыки мышления высокого порядка.*

MODERN METHODOLOGIES FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

ABSTRACT

This article highlights the theoretical and practical foundations for developing critical thinking skills among pupils and students during the process of foreign language acquisition. It substantiates that language learning is not merely the memorization of grammatical rules, but rather a vital tool for analyzing, evaluating, and synthesizing information.

Keywords: *Critical thinking, Bloom's taxonomy, communicative competence, problem-based learning, Generation Z, foreign languages, HOTS – Higher-Order Thinking Skills.*

KIRISH

Globalashuv va axborot oqimi shiddatli tus olgan bugungi kunda, xorijiy tillarni o'rganish faqatgina muloqot vositasi bo'lib qolmay, balki axborotni saralash va tahlil qilish mexanizmiga aylandi. Zamonaviy pedagogikada xorijiy til darslari o'quvchining kognitiv faolligini oshiruvchi muhim maydon hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash — bu olingan ma'lumotga shubha bilan qarash, dalillarni tekshirish va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Til o'rganishda ushbu ko'nikmani shakllantirish o'quvchilar va talabalarga matnlardagi yashirin ma'nolarni tushunishga va axborot xurujlaridan himoyalanihga yordam beradi. Shuningdek, bu jarayon ta'lim oluvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarda kreativ yechimlar topish hamda global mehnat bozorida raqobatbardosh kadr bo'lib yetishish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur yondashuv shaxsning dunyoqarashini tizimli ravishda boyitib, kognitiv rivojlanish va intellektual immunitetni mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik vositadir."

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy tillarni o'qitish metodikasida tanqidiy fikrlashni integratsiya qilish masalasi 2005 yil tadqiqodchi D.Kottrell va 2001 yilda tadqiqodchi K.Vols larning tadqiqod ishlarida keng yoritilgan. Ularning fikricha, til o'rganish jarayoni o'quvchidan axborotni mantiqiy saralashni talab qiladi, bu esa o'z navbatida nutqiy kompetensiyalarning o'sishiga olib keladi. Yaqin rivojlanish zonasi "Scaffolding" nazariyasi esa tanqidiy fikrlashni ijtimoiy muloqot va muhokamalar orqali shakllantirishda pedagogik tayanch bo'lib xizmat qiladi [3-4]. Xorijiy tillarni o'qitishda "Inquiry-based learning" -so'rovga asoslangan ta'lim va "Case-study" metodlari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning amaliy mexanizmi sifatida qaralmoqda. Bu borada o'zbek olimlaridan J.Jalolov va bir qator tadqiqotchilar til

o'rgatishning kommunikativ va kognitiv jihatlarini uyg'unlashtirish zarurligini o'z ishlarida ta'kidlab o'tganlar.[1]

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy til darslarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish, talabalarning kognitiv moslashuvchanligini oshiradi va axborotni saralash orqali mediasavodxonlikni mustahkamlaydi hamda til o'rganishni mexanik jarayondan ijodiy-tahliliy jarayonga aylantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqotimiz doirasida Bloom taksonomiyasining yuqori tartibli fikrlash ko'nikmalari (**HOTS** – *Higher-Order Thinking Skills*) xorijiy tillarni o'qitish metodikasiga integratsiya qilindi. Mazkur yondashuv talabalarda ijodkorlik, mantiqiy tasavvur, hamkorlikda ishlash, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat, yetakchilik va raqamli savodxonlik kabi ko'nikmalarni tizimli ravishda shakllantirish imkonini beradi. Ushbu ko'nikmalar nafaqat talabalar tomonidan o'zlashtirilishi, balki o'qituvchilarning pedagogik faoliyati davomida doimiy ravishda amaliyotga tatbiq etilishi lozim bo'lgan yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlardir. Talaba o'rtasidagi interaktiv hamkorlik ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishning fundamental asosi bo'lib xizmat qiladi. Talabalar quyi darajadagi fikrlash axborotni shunchaki eslab qolish va tushunish bosqichidan **HOTS** tahlil, [3] baholash va sintez darajasiga o'tishlari bilan ular da axborotga nisbatan ongli va tahliliy munosabat shakllana boshlaydi. Bunda tashqari ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalari (Gamification) nafaqat dars samaradorligini, balki talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham sezilarli darajada oshiradi. Quyida ushbu ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy usullar keltirilgan:

- Asar qahramonlarining tarjimai holini yaratish: Bunda badiiy asar qahramonlarining biografiyasini yozish talabadan obrazni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Shuningdek, ushbu faoliyatni o'sha qahramon bilan o'tkaziladigan "Improvizatsiya qilingan intervyu" shaklida davom ettirish mumkin.[4]

- Mavzuni drammatizatsiya qilish "Sahnalashtirish": Drammatizatsiya — bu eng samarali jamoaviy faoliyat turlaridan biri bo'lib, u har bir talabaning o'ziga xos iqtidorini yuzaga chiqarishga yordam beradi.


- Dolzarb masalalar bo'yicha munozaralar o'tkazish: Debat va munozaralar muammoni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi hamda talabalarning mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.[5]

- Muqobil yakun yozish: Hikoya yoki pyesaning oxirini o'zgartirish mashg'uloti talabalarda ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Bunda o'qituvchi talabadan ushbu yangi yakunni mantiqiy asoslab berishni so'rashi lozim.

• Akrostik she'rlar yaratish: So'zlar va harflar bilan ishlash orqali lug'at boyligini oshirish va assotsiativ fikrlashni o'stirish mumkin. Masalan:

So'zlar bilan tilga mehr uyg'otamiz,
She'rlar bilan ongni rivojlantiramiz.
Qulog'ingizda sof talaffuz yangrarkan,
Yangi dunyo sirlarini anglaymiz ham.

Bundan ko'rinadiki bu metodlarni dars jarayonida foydalanish uchun quyudagi blok sxemani taklif etamiz (1-rasm)



1-rasm. O'yin texnologiyalari (Gamification) tashkil etish blok sxemasi.

Talabalarni chuqurroq fikrlashga va vaziyatni tahlil qilishga majbur qilish uchun quyidagi savollardan foydalanish tavsiya etiladi yani **Sokratik munozara**: Talabalarga matn bo'yicha "nima uchun?" va "agar shunday bo'lsa-chi?" kabi ochiq savollar berish.[6-7] Misol uchun:

1. Sizningcha, voqealar rivoji keyinchalik qanday tus olishi mumkin?
2. Ushbu holatga o'xshash boshqa misollarni keltira olasizmi?
3. Hikoya syujetida aynan nimani o'zgartirgan bo'lardingiz?

4. Vaziyatning ehtimoliy natijalari sifatida nimani ko'ryapsiz va nima uchun?
5. Aynan qaysi omillar ushbu o'zgarishlarga sabab bo'ldi?
6. Asardagi burilish nuqtasi nima edi va u qanday ahamiyatga ega?
7. Asosiy muammoning ildizi nimada deb o'ylaysiz?
8. Ushbu muammoni siz qanday hal qilgan bo'lardingiz?
9. Qarorning ijobiy va salbiy tomonlarini sanab o'ting.
10. Mavjud muammoga muqobil variantlar bormi?

Case-study metodikasi: Muayyan bir vaziyatni xorijiy tilda tahlil qilish va uning ijobiy/salbiy tomonlarini argumentlar bilan asoslash. Masalan:

Xorijiy tilda quyidagi masalalarni tahlil qiling:

1. Azizning xatosini toping va uni "**Ekspert-tahrirchi**" sifatida qanday tuzatish mumkinligini ayting.
 2. Vaziyatning ijobiy va salbiy tomonlarini argumentlar bilan asoslang.
- Talabalar o'z fikrlarini xorijiy tilda bayon qilishlari lozim:

Jihatlari	Xorijiy tilda asoslash
Ijobiy	Tezlik va qulaylik: Katta hajmdagi ma'lumotni soniyalar ichida tarjima qila oladi.
	Til o'rganish yordamchisi: Yangi so'zlar va murakkab grammatik tuzilmalarni ko'rish imkoniyati.
Salbiy	Gallyusinatsiya xavfi: SI haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlarni (feyklarni) "ishonchli" tilda taqdim etadi. O'quvchining mustaqil fikrlashi va tanqidiy tahlili pasayadi.

Yuqorida keltirilgan metodlar pedagogik imkoniyatlarning faqat bir qismidir. Zamonaviy o'qituvchilar cheksiz axborot resurslariga va global miqyosda hamkasblari bilan tajriba almashish imkoniyatiga ega. Eng yaxshi ta'lim metodikalarini o'quvchilarning ehtiyojlari va darajasiga moslashtirish orqali kutilgan natijaga erishish mumkin.

NATIJALAR

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida tanqidiy fikrlash elementlari qo'llanilganda. Mavzularni o'zlashtirish darajasi, so'zlarni kontekstda tahlil qilish orqali lug'at boyligi bir necha borobarga tezroq va mustahkamroq shakllanadi. Talabalar shunchaki tayyor ssenariy bo'yicha gapirmasdan, o'z fikrlarini mustaqil va mantiqiy bayon qilishga o'tadilar. "Reading" darslarida talabalar matndagi asosiy g'oya va muallif pozitsiyasini ajratishda yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qildilar. Xorijiy til o'qituvchisi darsda faqat "axborot yetkazuvchi" emas, balki "fikir uyg'otuvchi" bo'lishi kerak. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, Talabalarni va qisqa

axborotga o'rgananlari sababli, ular bilan ishlashda tanqidiy fikrlashni vizuallashtirish masalan, Mind Map yoki Venn diagrammasi orqali amalga oshirish samaraliroqdir. Biroq, til darajasi past (Beginner/Elementary) bo'lgan talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish til to'sig'i tufayli biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun, avval sodda tahliliy savollardan boshlash tavsiya etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni o'qitishda tanqidiy fikrlashni shakllantirish talabalarning nafaqat lingvistik, balki hayotiy kompetensiyalarini ham kompleks ravishda rivojlantiradi. Mazkur tadqiqot asosida quyidagi yakuniy xulosalarni shakllantirish mumkin. Tanqidiy fikrlash til o'rganish jarayonini mexanik yodlashdan ongli tahlil darajasiga ko'taradi. Bu yondashuv talabalarni axborotni shunchaki qabul qiluvchi passiv tinglovchidan, uni tahlil qiluvchi va mantiqiy xulosalar chiqaruvchi faol subyektga aylantiradi. Ayniqsa, Z avlodi vakillari uchun bu metodika axborot xurujlariga qarshi "intellektual filtr" vazifasini o'taydi. Bloom taksonomiyasining yuqori darajali ko'nikmalarini (HOTS) dars jarayoniga tatbiq etish talabalarni mustaqil qaror qabul qilishga va xalqaro akademik hamda kasbiy muhitda raqobatbardosh bo'lishga tayyorlaydi. Til to'siqlarini yengishda mantiqiy argumentatsiyadan foydalanish talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Zamonaviy o'qituvchi faqatgina bilim beruvchi emas, balki kognitiv jarayonlarni boshqaruvchi moderator bo'lishi lozim. Shu sababli, dars dasturlariga matnni tanqidiy tahlil qilish, mantiqiy bahslashish, keys-stadi va muammoli topshiriqlarni tizimli ravishda kiritish talab etiladi.

Kelgusida xorijiy tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interaktiv modellarini yaratish metodika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi shart. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jamol Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun o'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent–2012darslik
<https://docs.google.com/viewer?url=https%3A%2F%2Flib.cspu.uz%2Findex.php%3Fdo%3Ddownload%26id%3D7367%26viewonline%3D1>
2. LEX.UZ Yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallash imkoniyatlari kengaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida <https://lex.uz/acts/-6252503>

3. S.T.Ravshanov M.A.Sulaymonov-Effectiveness of working with simulators and virtual laboratories in teaching agricultural sciences-Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani qo'llashning ta'lim samaradorligiga ta'siri: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari 2023 yil 926-930 b.
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9vBLcrUAAA&citation_for_view=9vBLcrUAAA&hqOjcs7Dif8C
4. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17773658>